


**2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, yuridik shaxs bo‘lgan korxona  
va tashkilotlar demografiyasi bo‘yicha tahliliy ma’lumot**  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida  
shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishva tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalgaoshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

2019- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 5 035 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 949 taga ko‘pdir. Natijada, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 201 ta (27,2 %) ga o‘sgan hamda ularning umumiyligi soni 19 639 tani tashkil etgan.






## **Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar** (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 19 639 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,2 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,8 % savdo, 13,8 % sanoat, 11,7 % qurilish, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,9 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning ulushi, % da.**


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tumanlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan  
korxona va tashkilotlar, birlikda.  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Tumanlar kesimida, ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni eng ko‘p Termiz shahri (3 911 ta), Denov tumani (2 363 ta), Jarqo‘rg‘on tumani (1 519 ta) va Termiz tumani (1 390 ta) hissasiga to’g’ri keladi. Aksincha Oltinsoy (777 ta), Muzrabot (902 ta) hamda Boysun (931 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 19 220 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 048 ta (26,7 %) ga o'sgan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, % da.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (3 886 ta), Denov (2 318 ta), Jarqo'rg'on (1 470 ta) va Termiz (1 358 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Oltinsoy (764 ta), Muzrabot (885 ta) hamda Boysun (900 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




### **Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar**

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2019- yil yanvar-dekabr oylarida 5 035 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018- yilning shu davriga nisbatan 1,6 martaga ko`pdir.


### **2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.**

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (914 ta), Denov (664 ta), Sho`rchi (488 ta) va Jarqo`rg`on (393 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Boysun (182 ta), Oltinsoy (193 ta) hamda Sariosiyo (212 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (1 810 ta), sanoat (987 ta), qurilish (601 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (514 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqa (53 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (58 ta), hamda tashish va saqlash (131 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**Tijorat korxonalarini**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko`ra, 15 625 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar - 6 330 ta, oilaviy korxonalar - 1 445 ta, mas`uliyati cheklangan jamiyatlar - 7 502 ta, unitar korxonalar - 138 ta, aksiyadorlik jamiyatlari -24 ta va boshqalar - 186 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat  
ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, 7 624 tani tashkil etib, ulardan 7 502 tasi yoki 98,4 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 965 taga yoki 35,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2019- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 2 340 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 645 taga ko'pdir.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.


|      | 01.01.2020- y.       |                            | 2019- y.<br>yanvar-dekabr |
|------|----------------------|----------------------------|---------------------------|
|      | Ro'yxatdan<br>o'tgan | Faoliyat<br>ko'rsatayotgan | Yangi tashkil<br>etilgan  |
| Jami | 7 624                | 7 502                      | 2 340                     |

shundan:

|   |       |       |     |
|---|-------|-------|-----|
| Qishloq, o'rmon va baliq<br>xo'jaligi                     | 836   | 813   | 324 |
| Sanoat  | 1 223 | 1 204 | 415 |
| Qurilish  | 1 350 | 1 335 | 418 |
| Savdo   | 2 325 | 2 297 | 772 |
| Tashish va saqlash  | 583   | 571   | 100 |
| Yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar              | 304   | 298   | 91  |
| Axborot va aloqa  | 101   | 100   | 22  |
| Sog 'lijni saqlash va<br>ijtimoiy xizmatlar<br>ko'rsatish | 94    | 91    | 26  |
| Boshqa turlari  | 808   | 793   | 172 |

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 30,6 %, qurilish 17,8 %, sanoat 16,1 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 10,8 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa sog'lqn ni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,2 %, axborot va aloqa 1,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 4,0 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 7,6 % ga to'g'ri kelgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.**



**Kichik korxona va mikrofirmalar**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 15 509 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 33,5 % ga oshgan.

**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

|  | Kichik korxona<br>va mikrofirmalar<br>soni | shundan:      |               |
|--|--|---------------|---------------|
|  |  | Kichik orxona | Mikrofirmalar |


|                             |               |            |               |
|-----------------------------|---------------|------------|---------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>15 509</b> | <b>872</b> | <b>14 637</b> |
|-----------------------------|---------------|------------|---------------|

|                   |              |            |              |
|-------------------|--------------|------------|--------------|
| <b>Termiz sh.</b> | <b>3 360</b> | <b>226</b> | <b>3 134</b> |
|-------------------|--------------|------------|--------------|

*tumanlar:*

|             |       |     |       |
|-------------|-------|-----|-------|
| Oltinsoy    | 520   | 29  | 491   |
| Angor       | 774   | 42  | 732   |
| Boysun      | 711   | 24  | 687   |
| Muzrabot    | 685   | 19  | 666   |
| Denov       | 1 903 | 144 | 1 759 |
| Jarqo'rg'on | 1 199 | 64  | 1 135 |
| Qumqo'rg'on | 943   | 51  | 892   |
| Qiziriq     | 818   | 39  | 779   |
| Sariosiyo   | 740   | 55  | 685   |
| Termiz      | 1 190 | 52  | 1 138 |
| Uzun        | 765   | 39  | 726   |
| Sherobod    | 889   | 41  | 848   |
| Sho'rchi    | 1 012 | 47  | 965   |


**2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, % da.**  
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 3 360 tasi (21,7 %) Termiz shahri, 1 903 tasi (12,3 %) Denov, 1 199 tasi (7,7 %) Jarqo‘rg‘on hamda 1 190 tasi (7,7 %) Termiz tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 15 509 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 166 ta (33,3 %) - savdo, 2 627 ta (16,9 %) - sanoat, 2 256 ta (14,6 %) - qurilish, 1 411 ta (9,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 1 400 ta (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 731 ta (4,7 %) - tashish va saqlash, 263 ta (1,7 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 235 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 420 tasi (9,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



2019- yil yanvar-dekabr oylarida 4 845 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 2 064 taga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz shahri (870 ta), Denov tumani (638 ta), Sho'rchi tumani (473 ta) va Jarqo'rg'on tumani (385 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Boysun (170 ta), Oltinsoy (183 ta) hamda Sariosiyo (198 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona  
va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 1 810 ta, sanoat 985 ta, qurilish 600 ta va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 511 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 53 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 55 ta hamda tashish va saqlashda 130 ta tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, 1 466 tani tashkil etib, ulardan 1 445 tasi yoki 98,6 % faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 95,4 % ga oshganligini ta‘kidlash lozim.


### **Oilaviy korxonalarning soni to‘g‘risida ma‘lumot, birlikda.**

|                             | 01.01.2020- y.       |                            | 2019- y.<br>yanvar-dekabr |
|-----------------------------|----------------------|----------------------------|---------------------------|
|                             | Ro‘yxatdan<br>o‘tgan | Faoliyat<br>ko‘rsatayotgan | Yangi tashkil<br>etilgan  |
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>1 466</b>         | <b>1 445</b>               | <b>781</b>                |
| Termiz sh.                  | 90                   | 90                         | 35                        |
| <i>tumanlar:</i>            |                      |                            |                           |
| Oltinsoy                    | 82                   | 82                         | 47                        |
| Angor                       | 120                  | 119                        | 36                        |
| Boysun                      | 15                   | 14                         | 10                        |
| Muzrabot                    | 49                   | 49                         | 38                        |
| Denov                       | 279                  | 272                        | 121                       |
| Jarqo‘rg‘on                 | 180                  | 175                        | 103                       |
| Qumqo‘rg‘on                 | 58                   | 58                         | 39                        |
| Qiziriq                     | 75                   | 75                         | 41                        |
| Sariosiyo                   | 59                   | 59                         | 38                        |
| Termiz                      | 80                   | 79                         | 52                        |
| Uzun                        | 29                   | 26                         | 18                        |
| Sherobod                    | 107                  | 107                        | 71                        |
| Sho‘rchi                    | 243                  | 240                        | 132                       |

### Oilaviy korxonalar soni, birlikda.




### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 28,4 % yoki 410 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 28,2 % yoki 408 tasi savdo, 25,7 % yoki 371 tasi sanoat, 10,7 % yoki 155 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,7 % yoki 24 tasi qurilish, 0,9 % yoki 13 tasi tashish va saqlash, 0,5 % yoki 8 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 5 tasi sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,5 % yoki 51 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi yashash va ovqatlanish xizmatlari hamda savdoda, eng kami esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda.**


|                             | Korxonalar<br>soni | Jamiga nisbatan<br>ulushi, % |
|-----------------------------|--------------------|------------------------------|
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>781</b>         | <b>100,0</b>                 |
| Termiz sh.                  | 35                 | 4,5                          |
| Oltinsoy                    | 47                 | 6,0                          |
| Angor                       | 36                 | 4,6                          |
| Boysun                      | 10                 | 1,3                          |
| Muzrabot                    | 38                 | 4,9                          |
| Denov                       | 121                | 15,5                         |
| Jarqo‘rg‘on                 | 103                | 13,2                         |
| Qumqo‘rg‘on                 | 39                 | 5,0                          |
| Qiziriq                     | 41                 | 5,2                          |
| Sariosiyo                   | 38                 | 4,9                          |
| Termiz                      | 52                 | 6,7                          |
| Uzun                        | 17                 | 2,2                          |
| Sherobod                    | 71                 | 9,1                          |
| Sho‘rchi                    | 132                | 16,9                         |

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning asosiy qismi Sho‘rchi (132 ta), Denov (121 ta), Jarqo‘rg‘on (103 ta) va Sherobod (71 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Eng kam Uzun (17 ta), Termiz shahri (35 ta) hamda Muzrabot (38 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.




Sanoat



Savdo




Qishloq, o'rmon va baliq  
xo'jaligi



Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar



Axborot va  
aloqa




Qurilish



Sog'liqni saqlash va  
ijtimoiy xizmatlar  
ko'rsatish



Tashish va saqlash




Boshqa turlari

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 32,5 % yoki 254 tasi savdo, 26,4 % yoki 206 tasi sanoat, 25,1 % yoki 196 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,4 % yoki 89 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 11 ta qurilish, 0,9 % yoki 7 tasi axborot va aloqa shuningdek, 2,0 % yoki 16 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019- yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 350 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 178 taga yoki 203,5 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (165 ta), Termiz (39 ta) Uzun (29 ta), Angor (17 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari Oltinsoy (5 ta), Boysun (6 ta) hamda Qumqo‘rg‘on (8 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 112 tasi qo‘shma, 238 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da.



**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, birlikda.**

|                             | Jami       | shundan:        |                 |
|-----------------------------|------------|-----------------|-----------------|
|                             |            | Qo‘shma korxona | Xorijiy korxona |
| <b>Surxondaryo viloyati</b> | <b>350</b> | <b>83</b>       | <b>52</b>       |
| Termiz shahri               | 165        | 28              | 137             |
| <i>tumanlar:</i>            |            |                 |                 |
| Oltinsoy                    | 5          | 4               | 1               |
| Angor                       | 17         | 2               | 15              |
| Boysun                      | 6          | 5               | 1               |
| Muzrabot                    | 12         | 5               | 7               |
| Denov                       | 16         | 8               | 8               |
| Jarqo‘rg‘on                 | 10         | 6               | 4               |
| Qumqo‘rg‘on                 | 8          | 5               | 3               |
| Qiziriq                     | 10         | 1               | 9               |
| Sariosiyo                   | 15         | 9               | 6               |
| Termiz                      | 39         | 15              | 24              |
| Uzun                        | 29         | 15              | 14              |
| Sherobod                    | 8          | 4               | 4               |
| Sho‘rchi                    | 10         | 7               | 3               |

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019- yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 176 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 53 taga ko'paygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahri (94 ta yoki jamidagi ulushi 53,4 %), Termiz (22 ta yoki 12,5 %) va Uzun (18 ta yoki 10,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Oltinsoy (1 ta yoki 0,6 %), Jarqo'rg'on, Qiziriq, Sariosiyo (2 tadan yoki 1,1 % dan) hissalariga to'g'ri keladi.

### 2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda.



Turkiya - 4 ta.



Turkmaniston - 5 ta.



Qozog'iston - 4 ta.



Afg'oniston - 125 ta.



Boshqalar - 9 ta.



Rossiya - 13 ta.



Tojikiston - 8 ta.



Xitoy - 4 ta.




Hindiston - 4 ta.

Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 125 ta, Rossiya Federatsiyasi - 13 ta, Tojikiston Respublikasi - 8 ta, Turkmaniston Respublikasi - 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi - 4 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019- yil yanvar-dekabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (58 ta), sanoat (45 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (41 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1 tadan) hamda tashish va saqlashda (2 ta) tashkil etilgan.

**2019- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.**



**Surxondaryo viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni, birlikda.**

|                           | <b>Jami</b> | <i>shundan:</i>        |                        |
|---------------------------|-------------|------------------------|------------------------|
|                           |             | <b>Qo‘shma korxona</b> | <b>Xorijiy korxona</b> |
| Rossiya Federatsiyasi     | 34          | 20                     | 14                     |
| Tojikiston Respublikasi   | 20          | 12                     | 8                      |
| Qozog‘iston Respublikasi  | 9           | 5                      | 4                      |
| Turkmaniston Respublikasi | 5           | 1                      | 4                      |
| Gruziya Respublikasi      | 3           | 2                      | 1                      |

Viloyatda MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 9,7 %, Tojikiston Respublikasi 5,7 %, Qozog‘iston Respublikasi 2,6 %, Turkmaniston Respublikasi 1,4 %, Gruziya Respublikalarida 0,9 % ga to‘g‘ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish  
bo‘limi  
Tel. (71) 230-85-90**